

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qashqadaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 35 273,9 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 34 758,8 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 461,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 53,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (3 329,9 mlrd so'm), Kitob (3 269,5 mlrd so'm), Qamashi (3 193,3 mlrd so'm), Yakkbog' (2 861,3 mlrd so'm), Kasbi (2 711,7 mlrd so'm), Qarshi (2 541,8 mlrd so'm), Shahrisabz (2 461,2 mlrd so'm), Chiroqshi (2 458,7 mlrd so'm), va G'uzor (2 449,8 mlrd so'm), tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (304,9 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (212,3 mlrd so'm) va Dehqonobod tumanini (1 467,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	35273,9	102,0
Qarshi shahar	304,9	100,5
Shahrisabz shahar	212,3	100,7
G'uzor tumani	2449,8	104,9
Dehqonobod tumani	1467,5	102,5
Qamashi tumani	3193,3	104,8
Qarshi tumani	2541,8	100,5
Koson tumani	3329,9	100,9
Kitob tumani	3269,5	101,8
Mirishkor tumani	2165,1	100,1
Muborak tumani	1823,2	102,6
Nishon tumani	2231,2	97,3
Kasbi tumani	2711,7	98,2
Ko'kdala tumani	1792,5	104,3
Chiroqchi tumani	2458,7	102,7
Shahrisabz tumani	2461,2	103,9
Yakkabog' tumani	2861,3	104,4

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari G'uzor (104,9 %), Qamashi (104,8 %), Yakkabog' (104,4 %), Ko'kdala (104,3 %), Shahrisabz (103,9 %), va Chiroqchi (102,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Shahrisabz shahar (100,7 %), Qarshi shahar (100,5 %), Mirishkor (100,1 %), Kasbi (98,2 %), va Nishon (97,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 34301,1 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 12086,1 mlrd so'mni (101,9 %), chorvachilik mahsulotlari 22215,1 mlrd so'mni (101,8 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Koson (3 280,5 mlrd so'm), Qamashi (3 157,4 mlrd so'm), Kitob (3 091,3 mlrd so'm), Yakkabog' (2 771,1 mlrd so'm), Kasbi (2 635,3 mlrd so'm), Qarshi (2 499,9 mlrd so'm) va Chiroqchi (2 421,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (285,3 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (211,1 mlrd so'm) va Dehqonobod tumanini (1456,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari G'uzor (104,6 %), Qamashi (104,6 %), Yakkabog' (104,2 %), Ko'kdala (104,1 %), Shahrisabz (103,5 %), va Chiroqchi (102,6 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi (101,1 %), Koson (100,6 %), Mirishkor (100,2 %), Kasbi (98,9 %) va Nishon (98,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,0 % i fermer xo'jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qamashi (2 210,1 mlrd so'm), Koson (2 116,7 mlrd so'm), G'uzor (1 817,1 mlrd so'm), Chiroqchi (1 791,7 mlrd so'm), Kitob (1 661,3 mlrd so'm) va Kasbi (1 584,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Nishon (1 193,9 mlrd so'm), Muborak (1 171,2 mlrd so'm), Ko'kdala (1 115,9 mlrd so'm), Qarshi shahar (260,5 mlrd so'm) va Shahrisabz shahar (171,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nishon (104,9 %), Mirishkor (104,3 %), Kasbi (103,9 %), Qarshi (102,8 %), tumanlarida qayd etildi. Ko'kdala (100,8 %), Shahrisabz (100,5%), Yakkabog' (100,5 %) va Qarshi shahar (100,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 243,0 ming tonna go'sht, 976,1 ming tonna sut, 409,2 mln dona tuxum, 196,5 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 2,0 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, sog'ib olingan sut – 100,1 % ni, olingan tuxum – 97,6 % ni, olingan qorako'l teri – 104,5 % ni hamda ovlangan baliqlar – 106,5 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 3,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 3,9 % i fermer xo'jaliklari, 95,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	243,0	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,3	123,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	228,0	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,7	100,7
Sut, ming tonna	976,1	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	38,3	105,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	928,6	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,2	108,4
Tuxum, mln. dona	409,2	97,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,2	121,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	268,2	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	114,8	87,3
Jun, tonna	8154	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	578	102,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7125	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	451	113,0
Qorako'l teri, ming dona	196,5	104,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16,1	137,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	148,2	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	32,2	105,3
Baliq, ming tonna	2,0	106,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,1	129,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,1	110,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	86,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 6,4 % i fermer xo'jaliklariga, 65,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 8,2 % i fermer xo'jaliklariga, 75,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 54,5 % i fermer xo'jaliklariga, 2,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 42,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Tumanlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht <i>(tirik vaznda), tonna</i>	Sut, <i>tonna</i>	Tuxum, <i>ming dona</i>
Qashqadaryo viloyati	243020	976065	409216
Qarshi shahar	3725	1640	11886
Shahrisabz shahar	1526	11546	2378
G'uzor tumani	22864	49982	23973
Dehqonobod tumani	16729	36845	11179
Qamashi tumani	25421	83860	43206
Qarshi tumani	16547	77289	27387
Koson tumani	22065	104225	37563
Kitob tumani	16399	91852	23688
Mirishkor tumani	14978	47618	30250
Muborak tumani	13355	47263	14554
Nishon tumani	14199	42139	10640
Kasbi tumani	15560	89196	15650
Ko'kdala tumani	11795	52564	31279
Chiroqchi tumani	20258	72978	22131
Shahrisabz tumani	12258	79952	67508
Yakkabog' tumani	15341	87116	35944



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Kitob (1430,0 mlrd so'm), Yakkabog' (1198,0 mlrd so'm), Koson (1163,8 mlrd so'm), Kasbi (1051,1 mlrd so'm), Shahrisabz (981,6 mlrd so'm), Nishon (949,3 mlrd so'm) va Qamashi (947,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Dehqonobod tumanini (133,6 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (39,7 mlrd so'm) va Qarshi shaharni (24,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari G'uzor (115,3 %), Qamashi (112,8 %), Ko'kdala (109,0 %), va Yakkabog' (108,4 %) tumanlarida qayd etildi. Koson (98,3 %), Qarshi (96,7 %), Mirishkor (95,4 %), Kasbi (93,4 %), va Nishon (92,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Tumanlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	539570	113,6
Qarshi shahar	2206	103,2
Shahrisabz shahar	3385	100,4
G'uzor tumani	24451	123,2
Dehqonobod tumani	4047	105,8
Qamashi tumani	51607	113,7
Qarshi tumani	47099	111,6
Koson tumani	61856	113,7
Kitob tumani	66756	105,9
Mirishkor tumani	25595	111,9
Muborak tumani	15056	111,8
Nishon tumani	37862	112,2
Kasbi tumani	27029	116,6
Ko'kdala tumani	29247	124,5
Chiroqchi tumani	28073	112,4
Shahrisabz tumani	62429	111,3
Yakkabog' tumani	52872	122,9

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Kitob tumani (12,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Shahrisabz (11,6 %), Koson (11,5 %) va



Yakkabog' (9,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Dehqonobod (0,8 %), Qarshi shahar (0,4 %) va Shahrisabz shaharda (0,6 %) kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ko'kdala tumani (124,5 %), G'uzor (123,2 %), Yakkabog' (122,9 %), Kasbi (116,6 %), Qamashi (113,7 %), Koson (113,7 %), Chiroqchi (112,4 %) tumanlari, Nishon (112,2 %) va Mirishkor tumanida (111,9 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 801,6 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 1,3 % ga ko'p), sigirlar 583,5 ming boshga (0,9 % ga ko'p), qo'y va echkilar 5 160,5 ming boshga (1,8 % ga ko'p), parrandalar 7 056,0 ming boshga (3,4 % ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 801,6	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	132,1	111,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 638,6	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,9	109,9
shundan sigirlar	583,5	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	57,7	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	513,0	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,8	115,7
Qo'y va echkilar	5 160,5	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	504,2	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 274,6	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	381,7	107,9
Otlar	38,4	104,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,8	118,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29,3	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	120,5
Parrandalar	7 056,0	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	806,9	114,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 387,7	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 861,4	106,8



2025- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,9 % i fermer xo'jaliklariga, 87,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,8 % i fermer xo'jaliklariga, 82,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 11,4 % i fermer xo'jaliklariga, 62,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1-oktabr holatiga tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Qashqadaryo viloyati	1801644	5160543	7056048
Qarshi shahar	6632	15747	195887
Shahrisabz shahar	22889	16662	151681
G'uzor tumani	93627	638254	536515
Dehqonobod tumani	92351	746834	194222
Qamashi tumani	122672	248664	489640
Qarshi tumani	171937	233474	483580
Koson tumani	192009	618964	551286
Kitob tumani	144505	164804	555987
Mirishkor tumani	103249	446911	455755
Muborak tumani	117037	539532	247198
Nishon tumani	137121	333779	343740
Kasbi tumani	153678	204272	244170
Ko'kdala tumani	119789	323860	579986
Chiroqchi tumani	117231	357180	523468
Shahrisabz tumani	94650	109586	861863
Yakkabog' tumani	112267	162020	641070



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. O'rinov
75 221-44-36 (1710)

Manzil:
Qarshi sh, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2b
